



"HUQUQ MAKABI" MOBIL ILOVASI ORQALI HUQUQIY SAVODXONLIGINGIZNI BEPUL OSHIRING!



ILOVANI APP STORE VA PLAY MARKETDAN YUKLAB OLING!



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 03.02.2022 yildagi SQ-464-IV-son

Излаш

X

Кучга кириш санаси

03.02.2022

Кўшимча ахборот

Улашиш



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING 2022 — 2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASINI "INSON QADRINI ULUG'LASH VA FAOL MAHALLA YILI"DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI IJROSINI TA'MINLASH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARI HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" asosida mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'tgan davr mobaynida 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli **Farmoni** bilan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o'rnlarda — Davlat dasturi deb yuritiladi) tasdiqlandi.

Mazkur konseptual hujjat "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni ro'yobga chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashga, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishga, malakali tibbiy xizmat ko'rsatishga, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratishga qaratilgan.

Davlat dasturi 7 ta yo'naliishda 398 ta banddan iborat bo'lib, unda rejalashtirilayotgan tadbirlarni moliyalashtirishga umumiy qiymati 55 trln so'm va 11,7 mlrd AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar ajratilishi ko'zda tutilgan.

Davlat dasturining Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'naliishidagi 12 ta maqsad va 45 ta aniq tadbir ijrosini ta'minlashga mas'ul etib Oliy Majlis palatalari belgilangan.

Qolaversa, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida (keyingi o'rnlarda — Taraqqiyot strategiyasi deb yuritiladi) hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan vazifalar doirasida tegishli hududiy dasturlarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha Bosh vazirning o'rnbosarlari hamda vazirlik va idoralar rahbarlari Oliy Majlis palatalariga hisobot berishi tartibi o'rnatildi.

Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Regamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining **6-moddasiga** muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qaror qiladi:

1. Davlat dasturining Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'naliishi ijrosini ta'minlash Oliy Majlis Senatining 2022-yildagi faoliyatida ustuvor vazifa sifatida belgilansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qo'mitalari:

Oliy Majlis Senati devoni tarkibiy bo'linmalari bilan bиргаликда chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minasin;

har chorak yakuni bo'yicha hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlaridagi vazifalarning bajarilishi yuzasidan Bosh vazir o'rnbosarlari hamda vazirlik va idoralar rahbarlari hisobotlariga puxta tayyorgarlik ko'rlishini ta'minasin. Bunda ayniqsa hududlardagi masalalarining "Davlat — inson uchun" tamoyili asosida hal qilinishiga alohida e'tibor qaratsin.

4. Ushbu Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinosi S. Safoyev zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi T. NARBAYEVA

Toshkent sh.,
2022-yil 3-fevral,
SQ-464-IV-son

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 3-fevraldag'i SQ-464-IV-sonli Qaroriga

ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

| T/r | Ustuvor yo'naliшlar, maqсадlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Mas'ul ijrochilar | Senatdagi mas'ul ijrochilar |
|--|--|--|----------------------------------|---------------|---|--|
| I. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIyatINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH | | | | | | |
| 1-maqsad. Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining ta'qib bo'g'iniga aylantirish | | | | | | |
| 1. | Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning ro'yxatini tuzish amaliyotini yo'lga qo'yish. | 1. Mahallalar tomonidan hal qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning ro'yxatini tuzish amaliyotini yo'lga qo'yish. 2. Mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil iyun | Moliya vazirligi T. Ishmetov, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi R. Mamatov, Axborot texnologiyalari vazirligi Sh. Shermatov | Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev Davlat budgeti va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi H. Abduvoxidov |



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha Chora-tadbirlar Rejasiga



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

| | | | | | |
|---|--|--|--------------------------|--|---|
| <p>2.</p> <p>Mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish hamda ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimini yaratish.</p> | <p>1. Aholining davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilish hamda ularning rahbarlari bilan videoaloqa orqali muloqotni bosqichma-bosqich tashkil etish.</p> <p>Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining mahallalar bilan samarali aloqalarini yo'lga qo'yish.</p> <p>2. Davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p> <p>3. Mahalla faoliyatida qog'ozbozlikni kamaytirish maqsadida taqdim etilishi lozim bo'lgan hisobotlar xatlovdan o'tkazilib, keskin kamaytirish hamda ularning tugal ro'yxatini tasdiqlash, shuningdek, ularni to'ldirish va taqdim etish jarayonini to'liq raqamlashtirish.</p> <p>4. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida arizalarni elektron ko'rinishda onlayn rejimida 2023-yil yakuniga qadar 70 — 80 foiz qabul qilishni ta'minlash bo'yicha choralorni ko'rish.</p> <p>5. Mahalla orqali rasmiylashtiriladigan va olinadigan barcha turdag'i ijtimoiy nafaqlar va moddiy yordamni tayinlash bo'yicha hujjalarni onlayn (elektron) tarzda taqdim etish tizimini joriy etish.</p> | <p>Normativ-huquqiy hujjalari loyihalari</p> | <p>2022-yil sentyabr</p> | <p>Vazirlar Mahkamasi, Axborot texnologiyalari vazirligi</p> <p>Sh. Shermatov, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi</p> <p>R. Mamatov, Adliya vazirligi</p> <p>R. Davletov, Davlat xizmatlari agentligi (lavozim bo'yicha)</p> | <p>Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi</p> <p>F. Boqiyev, Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi</p> <p>M. Kadirxanova</p> |
| <p>3.</p> <p>Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalarni ta'minlash.</p> | <p>1. Mahallalarda aholi bilan ishlashtisha qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish orqali "Ijtimoiy mahalla" tizimini yaratish.</p> <p>2. "Ijtimoiy mahalla" tizimi doirasida mahallalardagi shart-sharoitlar, infratuzilma va obyektlar ahvoli, qurilish va obodonlashtirish ishlarining borishi, ekologik vaziyat va boshqa masalalarni fuqarolar tomonidan virtual monitoring (mobil ilova, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.) qilish amaliyotini joriy etish.</p> <p>3. "Ijtimoiy mahalla" tizimi orqali mahallada ahvolni o'rganish yuzasidan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p> <p>4. Mahallalarning o'z hududlarida joylashgan kommunal, bandlik, soliq, obodonlashtirish sohalari va ta'lim muassasalari bilan aloqalar samaradorligini qayta ko'rib chiqish.</p> | <p>Normativ-huquqiy hujjalari loyihalari</p> | <p>2022-yil may</p> | <p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi</p> <p>R. Mamatov, Adliya vazirligi</p> <p>R. Davletov, Axborot texnologiyalari vazirligi</p> <p>Sh. Shermatov</p> | <p>Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi</p> <p>M. Kadirxanova, Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi</p> <p>F. Boqiyev</p> |



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

| | | | | | | |
|----|---|--|--|-------------------------------------|--|---|
| 4. | Mahallalarning jamoatchilik bilan aloqalarini kuchaytirish choralarini ko'rish. | Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda mahalla yuzasidan bildirilayotgan tanqidiy axborotlar bilan ishslash, shu jumladan ko'tarilayotgan muammolarni hal etishning samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rish, mutasaddi vazirlik va idoralar bilan o'zaro axborot almashish tizimini takomillashtirish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2022-yil iyun | Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi R. Mamatov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi D. Saidjonov | Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi F. Boqiyev, Axborot xizmati (lavozim bo'yicha) |
| 5. | Hokim yordamchilari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga ko'maklashish. | Mahalla hududida, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko'maklashish va o'qitish markazlari, tadbirkorlik obyektlari kabi infratuzilmani yaratishni nazarda tutuvchi hokim yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan namunaviy konsepsiyasini tasdiqlash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil may | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi I. Norqulov | Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi B. Sayfullayev |
| 6. | Mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish. | 1. Mahallada bir turdag'i ixtisoslashuvda faoliyat yuritayotgan aholini qo'llab-quvvatlash bo'yicha choratadbirlarni ishlab chiqish. 2. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hokim yordamchilarining asosiy vazifalaridan biri sifatida yil davomida mahallani o'rganish va tahlil qilish natijasida uni o'rta va qisqa muddatda rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2022-yil avgust | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi S. Xolxo'jayev, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi R. Mamatov, Moliya vazirligi T. Ishmetov, Savdo-sanoat palatasi A. Ikramov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Davlat budjeti va hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi X. Abduvoxidov |
| 7. | Mahallalarning institutsiyonal asoslarini takomillashtirish, mazkur tizim uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash. | 1. Fuqarolarning kamida uchdan bir qismi tashabbusi bilan mahalla raisiga nisbatan ishonchsizlik bildirish tartibini joriy etish. 2. Mahallalar joylardagi vakillik organlari bilan doimiy aloqalarining huquqiy aqoslarini yaratish. 3. Mahalla tizimi uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash tizimini tashkil etish. | Qonun loyihasi Amaliy chora-tadbirlar | 2022-yil aprel 2022-yil davomida | Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi R. Mamatov, Adliya vazirligi R. Davletov, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi A. Toshqulov | Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi N. Umarov, Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi M. Kadirxanova |

2-maqсад. Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

| | | | | | | |
|----|--|---|---------------------------------------|-------------------|---|--|
| 8. | Xalq deputatlari Kengashlarida doimiy asosda faoliyat yurituvchi deputatlar korpusini shakllantirish hamda ularning vakolatlarini kengaytirish va aniq belgilash orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish. | 1. Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarida ayrim deputatlarning doimiy asosda ishlashi tartibini joriy etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil may | Oliy Majlis Senatori (kelishuv asosida), Adliya vazirligi R. Davletov | Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi N. Umarov, Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya T. Madumarov, Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatiga ko'maklashish, odam savdosi va majburiy mehnatni oldini olish masalalari bo'limi Q. Muqumov, Yuridik boshqarma A. Xodjaniyazov |
| | | 2. Mahalliy kengashlar faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari reglamenti to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish. | Qonun loyihasi | 2022-yil iyul | | |
| | | 3. Mahalliy Kengashlarning nazorat funksiyalarini kengaytirish, ularni tizimlashtirish maqsadida "Xalq deputatlari Kengashlari nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish. | Qonun loyihasi | 2022-yil sentyabr | | |
| 9. | Halq deputatlari Kengashlarining ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishdagi vakolatlarini yanada kengaytirish. | 1. Ichimlik va oqova suv, ichki yo'llar va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, bandlik dasturlarini tasdiqlash kabi masalalarni tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlari vakolatiga o'tkazish. 2. Hududlarda davlat ta'limguassasalari, sog'liqni saqlash obyektlarini qurish va ta'mirlashga ajratiladigan mablag'larni taqsimlash vakolatini viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga o'tkazish. 3. Hududlarni kompleks ijtimoiy rivojlantirishga mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish tizimini qayta ko'rib chiqish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2022-yil may | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi A. Boboyev, Moliya vazirligi T. Ishmetov, Uy-joy va kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi N. Nazirov, Transport vazirligi A. Mo'minov, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi E. Muhitdinov | Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya T. Madumarov, Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatiga ko'maklashish, odam savdosi va majburiy mehnatni oldini olish masalalari bo'limi Q. Muqumov |

3-maqсад. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

| | | | | | | |
|-----|--|--|----------------------------------|-----------------|--|--|
| 10. | Mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish. | <p>1. Tuman va shahar hokimi lavozimiga nomzod ilgari surilishi tartibini qayta ko'rib chiqish.</p> <p>2. Hokimlikka nomzod mahalliy Kengashda hududni rivojlantirish bo'yicha o'z dasturini himoya qilib, lavozimga tasdiqlanishi tartibini joriy etish.</p> <p>3. Mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, mahalliy Kengashlarning Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo'linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash.</p> <p>4. Hududlarda amalga oshiriladigan davlat organlarining vazifalari bo'yicha "vakolatlar reyestri"ni shakllantirish, takrorlanadigan 500 dan ortiq funksiyalarni maqbullashtirish.</p> <p>5. Mahalliy hokimliklarning har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish.</p> | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil mart | Adliya vazirligi R. Davletov, Oliy Majlis Senati senatorlari (kelishuv asosida), Davlat boshqaruvi akademiyasi A. Bekmurodov | Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi N. Umarov, Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya T. Madumarov, Yuridik boshqarma A. Xodjaniyazov |
| 11. | Eksperiment tariqsida 28 ta tuman va shaharda hududni rivojlantirish va muammolarni hal qilish bo'yicha hokimliklar vakolat va imkoniyatlarini kengaytirish. | <p>1. Eksperiment amalgamasi oshiriladigan tuman va shaharlarni belgilash.</p> <p>2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z tuman (shahar) hokimliklarining hamda hududiy ijro idolarining shtat birligi va tuzilmalarini mahalliy Kengashlar bilan kelishilgan holda belgilash amaliyotini joriy qilish.</p> <p>3. Hududni rivojlantirish va muammolarni hal qilishda hokimliklarga qo'shimcha vakolat va imkoniyatlar yaratish.</p> | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil iyun | Moliya vazirligi T. Ishmetov, Adliya vazirligi R. Davletov | Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Davlat budjeti va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi H. Abduvoxidov |
| 12. | Mahalliy Kengashlar hamda hokimlarning vakolatlarini aniq belgilashga oid qonuniy asoslarni yaratish orqali alohida qonunlarni qabul qilish. | <p>1. Mahalliy Kengashlar hamda hokimlarning vakolatlarini aniq belgilash.</p> <p>2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalari (bo'linmalari) bilan o'zaro munosabatlарining aniq mexanizmlarini belgilash.</p> <p>3. Hokimliklar va mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar turlarini aniqlashtirish.</p> | Qonun loyihalari | 2022-yil dekabr | Adliya vazirligi R. Davletov, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi M. Ubaydullayev, Moliya vazirligi T. Ishmetov | Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya T. Madumarov, Yuridik boshqarma A. Xodjaniyazov, Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatiga ko'maklashish, odam savdosи va majburiy mehnatni oldini olish masalalari bo'limi Q. Mukumov |



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha ChORA-TADBIRLAR REJASI

| | | | | | | |
|-----|--|---|---|-------------------------|--|--|
| 13. | <p>Mahalliy boshqaruv faoliyatiga axborot texnologiyalarini keng joriy qilish.</p> | <p>1. Hududlar kesimida tizimlashtiriluvchi 40 dan ortiq sohalar bo'yicha ma'lumotlarni aniqlashtirish.</p> <p>2. Ushbu ma'lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarni ishga tushirish choralarini ko'rish.</p> | <p>Chora-tadbirlar</p> | <p>2022-yil oktyabr</p> | <p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi</p> <p>S. Xolxo'jayev, Statistika qo'mitasi</p> <p>B. Begalov</p> <p>Axborot texnologiyalari vazirligi</p> <p>Sh. Shermatov</p> | <p>Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi</p> <p>E. Gadoyev</p> |
| | | <p>3. "Raqamli xalq deputatlari Kengashi" loyihasi doirasida mahalliy vakillik organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.</p> <p>Bunda:</p> <p>mahalliy Kengashlarning yig'ilishlarini o'tkazishda ortiqcha sansalorliklarni bartaraf etish;</p> <p>mahalliy Kengashlar tomonidan hududiy ijro organlarini nazorat qilish doirasidagi hisobotlar,</p> <p>qarorlar, so'rovlar va boshqa hujjatlar hamda ularning bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilib borish amaliyotini joriy etish nazarda tutiladi.</p> | <p>Normativ-huquqiy hujjat loyihasi</p> | <p>2022-yil oktyabr</p> | <p>Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida),</p> <p>Axborot texnologiyalari vazirligi</p> <p>Sh. Shermatov, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p> | <p>Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi</p> <p>F. Boqihev,</p> <p>Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya</p> <p>T. Madumarov,</p> <p>Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatiga ko'maklashish, odam savdosi va majburiy mehnatni oldini olish masalalari bo'limi</p> <p>Q. Muqumov</p> |

4-maqсад. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish

| | | | | | | |
|-----|---|---|-----------------------|------------------------|---|--|
| 14. | <p>Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashivi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish.</p> | <p>1. Barcha turdag'i davlat nazoratini tizimlashtirish va ularni amalga oshirishning aniq mexanizm va tartib-taomillarini belgilash maqsadida "Davlat nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Davlat boshqaruvi organlari huzuridagi inspeksiyalar faoliyatida manfaatlar to'qnashivi vujudga kelishini bartaraf etish choralarini ko'rish.</p> | <p>Qonun loyihasi</p> | <p>2022-yil dekabr</p> | <p>Adliya vazirligi</p> <p>R. Davletov,</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p> <p>A. Burxanov,</p> <p>Bosh prokuratura</p> <p>N. Yo'ldoshev</p> | <p>Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi</p> <p>N. Umarov,</p> <p>Yuridik boshqarma</p> <p>A. Xodjaniyazov</p> |
|-----|---|---|-----------------------|------------------------|---|--|



**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senatining 2022 — 2026-yillarga
mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning
taraqqiyot strategiyasini "Inson
qadrini ulug'lash va faol mahalla
yili"da amalga oshirishga oid davlat
dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha
chora-tadbirlari haqida**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senatining 2022 — 2026-yillarga
mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning
taraqqiyot strategiyasini "Inson
qadrini ulug'lash va faol mahalla
yili"da amalga oshirishga oid davlat
dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| | | | | | | |
|-----|---|--|---|----------------|--|--|
| 15. | <p>Davlat budjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish.</p> | <p>1. Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish. 2. Budget qonunchiligi buzilishining profilaktikasi va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash. 3. Budget tashkilotlaridagi ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarining to'g'ri hisoblanishi ta'minlashga qaratilgan axborot tizimlarini takomillashtirish. 4. Davlat budjeti hisobidan amalga oshirilayotgan qurilish obyektlarida bajarilayotgan ish hajmlari hamda belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish tizimini joriy etish. 5. Ichki audit xizmati xodimlarini malakasini oshirish va sertifikatlash tizimini yaratish. 6. Davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilish holatlarni oldini-olish choralarini ko'rish. 7. Davlat tomonidan subsidiya ajratishni muvofiqlashtirish hamda uning samaradorligini oshirish va uni takomillashtirib borish bo'yicha yagona davlat organini belgilash. 8. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratishning yagona elektron platformasi orqali amalga oshirish tizimini joriy etish. 9. Ajratilgan subsidiya va ulardan erishilgan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq e'lon qilish tartibini belgilash.</p> | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihalari | 2022-yil feval | Moliya vazirligi Hisob palatasi B. Turabov | Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Davlat budjeti va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi H. Abduvoxidov |
|-----|---|--|---|----------------|--|--|

5-maqсад. Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish

| | | | | | | |
|-----|---|---|--|------------------|---|--|
| 16. | <p>Davlat boshqaruvi organlari rahbarlari tomonidan tashkiliy-huquqiy masalalarni o'zлari mustaqil hal etishi va tashabbus ko'rsatishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.</p> | <p>1. Vazirlik va idoralar shtat birliklari sonini Moliya vazirligi tomonidan belgilangan cheklow doirasida ularning rahbarlari tomonidan mustaqil belgilash, xodimlarga ish hajmi va samaradorligiga qarab maosh to'lash tartibini joriy qilish. 2. Vazirlik va idoralar rahbarlari tomonidan mustaqil hal etiladigan tashkiliy-huquqiy masalalar doirasini belgilash.</p> | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi | 2022-yil oktyabr | Moliya vazirligi Adliya vazirligi R. Davletov | Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Davlat budjeti va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi H. Abduvoxidov |
|-----|---|---|--|------------------|---|--|



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha ChORA-TADBIRLAR REJASI

| | | | | | | |
|--|--|---|--|--------------------------------|---|--|
| <p>17.</p> | <p>Davlat boshqaruvi organlarining hududiy masalalarini hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo'nalishlarini rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish.</p> | <p>1. Barcha bo'g'indagi davlat boshqaruvi organlarining bir yillik ish dasturini, shu jumladan jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqish, ularning ijro holatini doimiy e'lon qilib borish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p> <p>2. Davlat organlarida murojaatlarni tahlil qilish, ijtimoiy so'rovlar va jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish natijalaridan kelib chiqib, hududlar (tuman, shahar, qishloq va mahalla) kesimida o'z tuzilmalarining faoliyati bo'yicha ochiq dasturlar ishlab chiqish.</p> <p>3. Davlat boshqaruvi organlari hududlar bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan yagona nazorat tizimini yaratish.</p> <p>4. Davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarolarning ijro etilishi jarayonini jamoatchilik tomonidan kuzatib borish tizimini yaratish.</p> <p>5. Har bir tarmoq va hudud bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berish tizimini takomillashtirish.</p> <p>6. Muhim ijtimoiy-masalalar bo'yicha ochiq ma'lumotlarning doirasini yanada kengaytirish va mazkur ma'lumotlardan to'siqlarsiz foydalanishni ta'minlash.</p> | <p>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari</p> | <p>2022-yil may</p> | <p>Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi R. Davletov, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi O. Xasanov, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi A. Burxonov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi A. Xodjayev, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi I. Norqulov</p> | <p>Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi F. Boqiyev, Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya T. Madumarov</p> |
| <p>18.</p> | <p>Vazirlik va idoralarda ish yuritish va ma'muriy boshqaruv jarayonlari sifatini takomillashtirish.</p> | <p>Vazirlik va idoralar faoliyatiga sifat menejmenti tizimining xalqaro standartini (ISO: 9001) joriy qilish. Bunda, ushbu tizimni 2022-yilning yakuniga qadar vazirlik va idoralarning 30 foizida joriy qilish.</p> | <p>Amaliy chora-tadbirlar</p> | <p>2022-yil yakuniga qadar</p> | <p>O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi D. Sattorov, vazirlik va idoralar</p> | <p>Fan, ta'lrim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi O. Iminov, Xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo'limi O. Izzatillayev</p> |
| 6-maqsad. Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullahshtirish | | | | | | |
| <p>19.</p> | <p>Ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish.</p> | <p>Xususiy sektorga o'tkaziladigan va ularni jalb qilish mumkin bo'lgan ayrim davlat funksiyalarini oshirish. Bunda:</p> <p>ayrim sohalardagi davlat nazorati, shu jumladan yongin xavfsizligini ta'minlash, dori vositalarini sertifikatlashtirish kabi funksiyalarga xususiy sektor vakillarini jalb qilish;</p> <p>xususiy sektorni jalb qilish samaradorligi yuqori bo'lgan sohalarni aniqlab, ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish nazarda tutiladi.</p> | <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi</p> | <p>2022-yil dekabr</p> | <p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi I. Norqulov, Adliya vazirligi R. Davletov</p> | <p>Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi N. Umarov, Yuridik boshqarma A. Xodjaniyazov</p> |



**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senatining 2022 — 2026-yillarga
mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning
taraqqiyot strategiyasini "Inson
qadrini ulug'lash va faol mahalla
yili"da amalga oshirishga oid davlat
dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha
chora-tadbirlari haqida**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senatining 2022 — 2026-yillarga
mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning
taraqqiyot strategiyasini "Inson
qadrini ulug'lash va faol mahalla
yili"da amalga oshirishga oid davlat
dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| | | | | | | |
|--|---|---|--|---|---|---|
| <p>20.</p> | <p>Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish ishlarini jadallashtirish.</p> | <p>1. Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish hisobiga mahalliy ijro hokimiyati organlari va hududiy davlat boshqaruvi organlarining joylarda masalalarini hal qilishdagi rolini oshirish.</p> <p>3. Respublika davlat boshqaruvi organlarining funksiya va vakolatlarini hududiy davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'tkazishning tartibini ishlab chiqish.</p> <p>2. Hududlarni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilishda barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalarining samarali ishini, shu jumladan raqamli texnologiyalarni joriy qilgan holda tashkil etish.</p> | <p>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari</p> | <p>2022-yil dekabr</p> | <p>Adliya vazirligi R. Davletov, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi I. Norqulov, Axborot texnologiyalari vazirligi Sh. Shermatov</p> | <p>Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqliknini ta'minlash masalalari qo'mitasi F. Boqiyev, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi N. Umarov, Yuridik boshqarma A. Xodjaniyazov</p> |
| 7-maqsad. Mamlakatimizdagи islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish | | | | | | |
| <p>21.</p> | <p>Oliy Majlisning qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari bilan o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirish.</p> | <p>1. Qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari sonini ko'paytirish orqali qonunchilikdagi muammolarini vaqtida oldini olish tizimini yaratish.</p> <p>2. Qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining Oliy Majlisdagi doimiy vakili institutini amaldagi shtat birliklari doirasida ta'sis etish.</p> <p>3. Doimiy vakillarning huquqiy maqomi, vakolat va majburiyatlarini qonunchilikda belgilash.</p> <p>4. Budgetnomanning Hukumat tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatiga kiritilishi muddatini qat'iy belgilash. Bunda Budget kodeksining tegishli moddasidan "qoida tariqasida" so'zlarini chiqarishni nazarda tutish.</p> | <p>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari</p> | <p>2022-yil noyabr (kelishuv asosida), Adliya vazirligi R. Davletov</p> | <p>Oliy Majlis palatalari deputatlari va senatorlari Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi N. Umarov, Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Yuridik boshqarma A. Xodjaniyazov</p> | |
| <p>22.</p> | <p>Oliy Majlis peshlatalarining mamlakatning ichki siyosatiga oid muhim vazifalarini hal etishdagi vakolatlarini kengaytirish ishlarini davom ettirish.</p> | <p>1. Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosi borishini nazorat qilish doirasida parlament tomonidan mas'ul tashkilotlarga aniq strategik vazifalarni qo'yish va ulardan natijaga qarab so'rov qilish amaliyotini joriy qilish.</p> <p>2. Hududlarni rivojlantirish va investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va muhokama qilishda hududdan saylangan deputat va senatorlarning ishtirokini kuchaytirish.</p> | <p>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari</p> | <p>2022-yil iyun (kelishuv asosida)</p> | <p>Oliy Majlis palatalari deputatlari va senatorlari Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi E. Gadoyev, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi N. Umarov, Yuridik boshqarma A. Xodjaniyazov</p> | |



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

| | | | | | | |
|------------|---|--|--|--------------------------------|---|---|
